

TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASI BO'YICHA OLIB BORILGAN  
TAJRIBA-SINOV MAZMUNI VA TAHLILI ( 7-SINF MISOLIDA)

**Sobirxonova Ziyoda Temurxon qizi**

*Namangan davlat peragogika insituti 1-bosqich magistranti*

+998934488177

*sobirxonovaziyoda04@gmail.com*

**Anotatsiya.** Ushbu maqola 7-sinf o'quvchilarining tinglab tushunish kompetensiyasi interfaol topshiriqlar asosida rivojlantirilgani sinov-tajriba yordamida yoritib berilgan. Tajriba ishining mazmuni, raqamlar tahlili, xato va kamchiliklar, o'quvchilar egallangan bilim va ko'nikmalar jadval, diogramma orqali tahlil qilib berilgan. Topshiriqlar bilan bir qatorda xotira va diqqatni kuchaytirishga yordam beradigan mashqalar ham batafsil tushuntirilgan.

**Kalit so'z.** tinglab tushunish, ko'nikma, baholash, o'sish va kamayish, kamchiliklar, topshiriq, diqqat, xotira, tanriba-sinov

Til o'rganish jarayonida tinglab tushunish asosiy nutqiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Rankin tadqiqotlari natijasi shuni ko'rsatadiki, inson muloqotining 42% ini tinglash, 32% ini so'zlash, 15% ini o'qish va 11% ini yozish tashkil etadi<sup>25</sup>[1. Yusuf Doğan, 25-s]. Bu esa ta'lim jarayonida tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligini anglatadi. 2022–2023 o'quv yili uchun tasdiqlangan Milliy o'quv dasturi va darsliklarda nafaqat lingvistik kompetensiyalarga, balki nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, shu qatori tinglab tushunishga yer berilganligi ona tili o'qitish ta'liming yangi pog'onaga ko'tarilganligidan dalolat beradi<sup>26</sup>[2. Milliy O'quv dastur 172–182-b]. Ushbu maqolada yangicha interfaol topshiriqlar o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmasiga qanday ta'sir qilganligi ilmiy asoslar bilan keng yoritiladi.


#### I. Tajriba-sinov ishlari mazmuni

Ilmiy pedagogik faoliyat fevral-aprel oylari davom etdi. Tajriba darslari haftada ikki marotaba o'tkazildi. O'quvchilarning dastlabki tinglab tushunish malakasini tekshirish maqsadida “Hayvonot olami”, “Hayotdan nolisa...” she'ri, “Zararli odatlar” va “Tishlaringiz karies bo'lganda” mavzularidagi topshiriqlari berilgan bo'lsa, tajribadan keyingi tinglab tushunish malakalarini tekshirish uchun “Tabiiy ofatlar”, “Qushcha”, “Gaz smart hisoblagich”, “Jirafa” mavzularida topshiriqlar berildi. O'quvchilarning bajargan dastlabki topshiriqlari ilmiy va nazariy yo'nalishda tahlil qilindi. Tinglash jarayonida o'quvchilar duch kelgan xato va kamchiliklar aniqlandi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish

<sup>25</sup>Yusuf Doğan. Dinleme eğitimi. 12. Baskı. Ankara: Pegem Akademi, 2024. – 25 ss.

<sup>26</sup> Milliy o'quv dasturi. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022-2023 o'quv yili. – 172–182-b

**Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova va b. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224-b.**



hamda ularni tinglab tushunish jarayoniga tayyorlash, diqqatni jamlash yo'llari, xotirani kuchaytiruvchi mashqalar, turli xil topshiriqlar ishlab chiqildi. Xotirani kuchaytirishga yordam beradigan "Farqni top" va diqqatni jamlovchi "678" mashq va topshiriqlar bajartirildi. Sinf o'quvchilari bilan olib borilgan tajriba darslarida quyidagicha topshiriq turlaridan foydalanildi: ma'lumotlarni taqqoslash, fikrlarni faktlar bilan asoslash, natijalarga olib kelgan sabablarni moslashtirish, sarlavha qo'yish, so'zning audiomatndagi kontekstual ma'nosiga mos javob varitini belgilash, ma'lumotlarni ketma-ketlikda tartiblash, kodli yo'riqnoma asosida mahsulot raqamlarini topish, hukumlarni to'g'ri-noto'g'riligini baholash, audimatnga mos rasmlarni belgilash testi. Tajriba davomida olingan har bir topshiriqlar tekshirilib, kerakli ko'rsatkichlar orqali baholanib, tahlil qilindi. Tahlil natijalari tajriba guruhining tinglab tushunish ko'nikmasida sezilarli darajada o'zgarishlar bo'lganini ko'rsatdi.

## II. Tajriba-sinov ishlari ishtirokchilari.

7-sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmasini aniqlash va uni rivojlantirish maqsadida 2024–2025-o'quv yilida Namangan viloyati Chortoq tumanidagi 19-umum ta'lim maktabning 7-"A" sinfida ona tili fanidan tinglab tushunishni rivojlantirishga qaratilgan tajrib-sinov ishlari olib borildi. 3 oy davom etgan tajriba darslari davomida o'quvchilarga turli mavzu doirasida tinglab tushunish darajasini aniqlash va o'quvchilar yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida topshiriqlar berildi. 7-"A" sinf o'quvchilari umumiy hisobda 22 nafar bo'lib, 13–14 yoshlardagi 10 ta o'g'il va 12 ta qiz bola o'quvchilarning barchasi tajriba jarayonida ishtirok etdi. Bu o'quvchilar ichida faol va nafaol, yozishga qiynaladigan, o'z fikrini bildirishga ham tortinadigan o'quvchilar ham bor. Ular tajriba jarayonida har xil baho oldilar. Xatolar sonida jinslararo katta tafovut sezilmadi.

## III Tajriba-sinov natijalari tahlili

7-sinf o'quvchilarida tinglab tushunish malakasini shakllantirish yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov uch bosqichda tashkil etildi:

1-bosqich. Aniqlov bosqichi. O'quvchilarning dastlabki bilimlarini aniqlash yuzasidan olingan topshiriqlar. Bu topshiriqlarlar o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalarini qay darajada shakllanganligini aniqlash maqsadida olindi. O'quvchilarning tinglab tushunishdagi xato va kamchiliklari aniqlandi hamda ularni bartaraf etish uchun turli xildagi topshiriqlar, metod va usullardan foydalanildi.

2-bosqich. Rivojlantirish bosqichi. Bu bosqichning asosiy qismini o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish yuzasidan olib borilgan topshiriqlar tashkil etadi.

3-bosqich. Xulosalovchi bosqich.


O'quvchilar tinglab tushunish yuzasidan quyidagicha baholandi:

1. Yuqori (5 ball).
2. O'rta (4 ball).

### 3. Quyi (3 ball).

Tajribadan oldin va keying natijalar mezon asosida baholandi va ko'rsatkichlar solishtirildi.

Olingan tajriba-sinov umumiy ko'rsatkichi quyidagicha:



Tajriba-sinov jarayoning birinchi bosqichiga asosan, o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikma va malakalari aniqlandi. Unga ko'ra, o'quvchilarning tinglab tushunish holatlari quyidagicha namoyon bo'ldi: "yuqori" – 19%, "o'rta"– 35% , hamda "quyi" – 46 %. Tinglab tushunish topshiriqlarini bajarish jarayonida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklari sifatida sabab-natija a'loqasini to'g'ri qo'ya olmaslik, fikrni fakt bilan isbotlay olmaslik, voqealar ketma-ketligini chalkashtirish, ma'lumotlarni to'g'ri taqqoslay olmaslik, matnning asosiy g'oyasini tushuna olmaslik qayd etildi. O'quvchilarning xato va kamchiliklarini o'rganib chiqilib, mustahkamlanishi, to'ldirilishi kerak bo'lgan aniqlanib, shu asosda rivojlantiruvchi topshiriqlar berib borildi.

Tajriba jarayonining ikkinchi bosqichi rivojlantiruvchi topshiriqlarni kunlik natijalarga qarab shakllantirib, muntazam berib borishdan iborat bo'ldi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarishgandan so'ng topshiriqlardagi kamchiliklar ham ko'rina boshladi. Kunlik tahlilga asoslanib topshiriqlarni sayqallab, mukammal shaklda berishga harakat qilindi. Misol uchun, "Emo" topshirqda avval qaysi shaxs nutqiga e'tibor berishlari aytilmadi va o'quvchilarda chalg'ish holatlari kuzatildi. Ayol va erkak suhbatida varinatlar ichida ham erkakning hissiy holatini ifodalovchi, ham ayolni hissiy holatini ifodalovchi so'z borligi tufayli ko'pchilik o'quvchilar chalg'ishdi. Buni inobatga olib topshiriqni qaytadan tuzib, har bir dialogdan kimning hissiy holatini topishlari yozib qo'yildi. "Audio kvest" topshirig'ida esa rasmdagi maishiy jihozlarning tepa qismiga yumaloq belgi qo'yish ortiqcha ekanligi aniqlandi. Chunki ham katakka yozishlari, ham belgini ichiga raqam qo'yish topshiriqni sun'iy qiyinlashtirdi. Bu kamchilik bolani chalg'ishiga, topshiriqning asil maqsadidan uzoqlashishiga olib keldi. Muammoni og'zaki tushuntirib bartaraf etildi.

Tajriba jarayonining uchinchi bosqichida rivojlantiruvchi topshiriqlar o'quvchilarning sinov bosqichidagi holatlarini qay darajada o'zgartirgani bilish maqsadida nazorat sinovi olindi. Nazorat topshiriqlari sinov topshiriqlari bilan uzviy bog'langan ya'ni topshiriq darajalari, baholayotgan ko'nikmalar bir xil bo'lib ikkala holatni taqqolash maqsad qilib olindi. Nazorat topshirig'i natijalari quyidagicha: "yuqori" – 25 %, "o'rta" – 40 %, "quyi" – 35 %.

Nazorat uchun olingan topshiriqlar orqali o'quvchilarda tinglab tushunish darajasi sezirali daraja o'sganini ko'rishimiz mumkin. Sinov topshirig'ida uchragan kamchiliklarni asosiy qismi bartaraf etilgani va o'quvchilarning kam sonli qismi oldingi qilgan xatolarga yo'l qo'yish holatlari kuzatiladi.

Tajriba-sinov natijalarini quyidagi javdalda o'zaro taqqoslandi:

Baho	Aniqlov (%)	Xulosalovchi (%)	Farq (%)	Izoh
Yuqori (5)	19	25	+6	ko'tarilgan
O'rta (4)	35	40	+5	ko'tarilgan
Quyi (3)	46	35	-11	kamaygan

Bu natijaga erishishda o'quvchilar quyidagilarga e'tibor qaratganlar:

- ma'lumotlarni taqqoslay olgan;
- matn mazmuni asosida sarlavha qo'ya olgan;
- matndagi sabab-natijani farqlay olgan;
- matndagi so'zlarning kontekstual ma'nosini tushuna olgan;
- matndan dalil va faktlar keltira olgan;
- matndagi ma'lumotlar ketma-ketligini aniqlay olgan;
- matnning asosiy g'oyasini tushuna olgan.

Zamonaviy, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan jamiyatda ta'lim sohasi ham boshqa sohalar qatori izchil takomillashib bormoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonining asosi bo'lgan milliy o'quv dasturlari va darsliklar xalqaro andozalarga moslashtirilgan holda, milliy qadriyatlar negizida boyitilib, yangilanmoqda. Bu esa pedagogik jarayonning sifat va mazmun jihatidan yuksalishiga xizmat qilmoqda. Milliy ta'lim tizimining asosiy maqsadi – mustaqil fikrlovchi, o'z nuqtayi nazarini asosli ravishda ifodalay oladigan, ijtimoiy faolligi yuqori bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashdan iborat. Bunday salohiyatli yoshlarni shakllantirish esa ustozlarning bilimdonligi, metodik yondashuvi va ta'limiy-tarbiyaviy mas'uliyatiga bevosita bog'liqdir. Ilm berish, tarbiyasi berish, hayotga tayyorlash kabi ustuvor vazifalar har bir pedagog zimmasida turgan muhim ijtimoiy vazifadir. Shu sababli, ta'lim tizimida olib borilayotgan metodik islohotlar va zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarga puxta bilim berish, amaliy ko'nikma hamda mustahkam malakalarni shakllantirish strategik ahamiyatga ega jarayon sifatida e'tirof etilmoqda.



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusuf Dođan. Dinleme eđtimi. 12. Baskı. Ankara: Pegem Akademi, 2024. – 113 ss.
2. Milliy o‘quv dasturi. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022-2023 o‘quv yili. – 215-b
3. Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova va b. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224-b.

